

# SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398521>

**Meyliyev O.R.**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)**

**Gofurova K.X.**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti**

**Moliya fakulteti talabasi**

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda iqtisodiy global muammolar va inqirozlarning, jumladan tabiiy ofatlar va boshqa stixiyali kuchlar ta'sirida yuzaga keladigan zararlar vujudga kelishi milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga ta'siri davlatlarning mavjud moliya mexanizmi, bunda "yashil" iqtisodiyot, "yashil" byudjet tizimi faoliyatini takomillashtirishni talab etadi.

**Kalit so'zlar:** soliq, soliq siyosati, ekologiya, yashil soliq, ekologik soliq.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda byudjet-soliq siyosati mexanizmi hamda maqsadlarini tubdan o'zgartirish uning ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy komponentlari aholining kambag'al qatlamiga maqsadli yordam ko'rsatish va iqtisodiy sferaning raqobatbardoshligini oshirish bilan birgalikda atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni baholash va salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan yangi yondashuv va g'oyalarning shakllanishiga olib keldi.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni

rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

E.R.Lindal va J.R.Xikslar aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlodning iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslikka asoslangan rivojlanishga nisbatan iqtisodiy yondashuvda ilk bora asos solgan. Bunda yalpi daromadlarning maksimal oqimi konsepsiyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalini saqlab qolgan holatda amalga oshirilishi darkor. Jumladan, cheklangan resurslar, tabiiy resurslar hamda ekologik, energiya va materiallarni tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanish, ekologik xavf yaratmaydigan tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Yuqoridagi masalalarga yechim topishdagi bosh muammo nazarimizda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi.

Shu bois, atrof-muhit bilan bog'liq soliqlardan foydalanishni kengaytirish o'sishga yo'naltirilgan soliq islohotida muhim rol o'ynashi, yukni yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy to'lovlardan investitsiyalar va ishchi kuchi taklifiga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadigan soliq'larga o'tkazishi mumkinligi haqida OECD tomonidan foydalanilgan turli xil vositalarda ko'rishimiz mumkin.

Yevropa Ittifoqining qonuniy soliq bazasiga ko'ra, ekologik soliq'larga to'rtta kategoriya, energiya soliq'lari (transport uchun yoqilg'ilarni o'z ichiga oladi), transport uchun soliq'lari, ifloslanish sababli olinadigan yig'imlar va resurs soliq'lari o'z ichiga oladi.

## YI-27 davlatlarida ekologik soliq daromadlari

	2017	2018	2019	2020	2021
<b>Ekologik soliqlar, mlrd.yevroda</b>	<b>316,6</b>	<b>324,7</b>	<b>329,9</b>	<b>300,2</b>	<b>325,8</b>
<b>Energiya soliqlari</b>	<b>246</b>	<b>252,1</b>	<b>256,7</b>	<b>232,4</b>	<b>255,3</b>
Ekologik soliqlarning umumiy tushumiga nisbatan ulushi, foizda	77,7	77,7	77,8	77,4	78,4
Jami daromadlar ulushi soliqlar va ijtimoiy to'lovlardan, foizda	4,58	4,53	4,47	4,2	4,22
YaIM ga nisbatan ulushi, foizda	1,88	1,86	1,83	1,73	1,76
<b>Transport soliqlari, mlrd.yevroda</b>	<b>59,9</b>	<b>61,9</b>	<b>62,5</b>	<b>57,2</b>	<b>59,1</b>
Ekologik soliqlarning umumiy tushumiga nisbatan ulushi, foizda	18,9	19,1	19	19	18,1
Jami daromadlar ulushi soliqlar va ijtimoiy to'lovlardan, foizda	1,12	1,11	1,09	1,03	0,98
YaIM ga nisbatan ulushi, foizda	0,46	0,45	0,45	0,42	0,41
<b>Ifloslanish va resurs soliqlari, mlrd.yevroda</b>	<b>10,7</b>	<b>10,6</b>	<b>10,7</b>	<b>10,7</b>	<b>11,5</b>
Ekologik soliqlarning umumiy tushumiga nisbatan ulushi, foizda	3,4	3,3	3,2	3,6	3,5
Jami daromadlar ulushi soliqlar va ijtimoiy to'lovlardan, foizda	0,2	0,19	0,19	0,19	0,19
YaIM ga nisbatan ulushi, foizda	0,08	0,08	0,08	0,08	0,08

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga asosan shuni ko'rsatishimiz mumkinki, ekologik soliqlar yillar kesimida 2020-yilga qadar oshib boorish tendensiyasiga ega bo'lib, global ravishda yuzaga kelgan pandemiya davrida bu soliq turlaridan olinadigan daromad kamaygan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida foydalanilgan energiya uchun to'lanadigan soliqlar ekologik soliqlarning  $\frac{3}{4}$  qisimini qamrab oladi. Biroq rivojlangan davlatlar qatorida ham "yashil" soliqlar jami soliq daromadlari va ijtimoiy to'lovlarga nisbatan juda ham oz ulushni tashkil etadi.

YaIMga nisbatan ulushiga asosan tahlil qiladigan bo'lsak, jami soliqlar va ijtimoiy to'lovlar singari deyarli uch foizini o'z ichiga oladi.

Keltirilgan ma'lumotlarda "yashil" soliqlarning hajmi jami soliqlar hajmiga nisbatan ulushi past bo'lsada, 2019-yilda ko'rsatilgan "yashil" soliq stavkalarining YI-27 davlatlariga kiruvchi Bulgariya, Estoniya, Latviya, Polsha va Slovakiyada ikki baravarga ko'tarilgan, aksincha Daniya, Germaniya, Norvegiya va Portugaliyada 5-15 foizgacha pasaytirilganligi, 2030-2050-yillargacha mo'ljallangan yondashuv hamda maqsadlar asosida berilgan statistik prognozlar bilan empirik natijalarning ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich amalga oshayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Jumladan, ekologik soliqlarning ta'siri va oqilona maqsadli soliq siyosatini ishlab chiqish uchun mos kompilyatsiya yondashuvlarini qabul qilish muhim. Shu sababdan, ekologik soliqqa tortishning afzalliklarini milliy hisobvaraqlardan ajratish (NA) va ta'minot va jadvallardan (SUT), NACE toifasiga asoslangan tarqatish va shaffoflikni osonlashtiradigan boshqa tizimli usullar va hisobdor ma'lumotlar kompilyatsiya yondashuvlari asosida o'rganish tavsiya etilib, o'n bitta asosiy ekologik soliqlar tanlab olingan.

Shu bois, mamlakatimizda ham rivojlangan davlatlar tajribasiga asosan "yashil" yoki "ekologik" soliqlarning rivojlanishini, soliqlarda fiskallik, rag'batlantirish, nazorat va tartibga solish funksiyasidan tashqari bugungi kunda kuzatilayotgan dolzarb masala va muammolarga hamohang ravishda soliq siyosati va uning funksiyalarini tubdan isloh qilish zarur. Negaki davlatning iqtisodiy holatini, bunda

makroiqtisodiy barqarorlikni va rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardoshlikni ta'minlash, aholining ijtimoiy-moliyaviy holatini yaxshilashda ekologik muammolarni hal etmasdan erishib bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477- son Qarori
2. [https://www.researchgate.net/publication/301638196\\_The\\_concept\\_of\\_sustainable\\_development\\_as\\_a\\_methodological\\_base\\_to\\_form\\_strategy\\_for\\_enterprises\\_of\\_oil\\_complex](https://www.researchgate.net/publication/301638196_The_concept_of_sustainable_development_as_a_methodological_base_to_form_strategy_for_enterprises_of_oil_complex)
3. [Environmental tax statistics - Statistics Explained \(europa.eu\)](https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-manuals-and-guidelines/w/ks-gq-23-016)
4. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-manuals-and-guidelines/w/ks-gq-23-016>